O‘ZBEKISTONDA STARTAP-INVESTITSIYA SHARTNOMALARINI QO‘LLASHNING MODDIY-HUQUQIY MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

Muallif: Ismoilova Munira Farhod qizi,

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti o‘qituvchisi.

O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni shakllantirish va startap ekotizimini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Bugungi kunda O‘zbekiston startap ekotizimi o‘sish sur’ati bo‘yicha dunyoda eng tez rivojlangan mamlakatlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Biroq iqtisodiy sohadagi ushbu ulkan sakrashlarga qaramay, venchur sarmoyasini jalb etishning zamonaviy talablari va milliy fuqarolik hamda korporativ qonunchiligimiz o‘rtasida o‘ziga xos tafovutlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, global venchur bozorida keng qo‘llaniladigan “SAFE” (Kelajakdagi ulush evaziga moliyalashtirish to‘g‘risidagi oddiy kelishuv) va “Convertible Note” (Konvertatsiya qilinadigan qarz) kabi investitsiya vositalari O‘zbekiston yurisdiksiyasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llanilganda bir qator yuridik to‘siqlarga duch kelmoqda. Mazkur tadqiqot ishi transmilliy startap-investitsiya shartnomalarini milliy korporativ qonunchiligimizga integratsiya qilishda yuzaga kelayotgan dolzarb huquqiy muammolarni tahlil qilish hamda ularni takomillashtirish bo‘yicha aniq normativ takliflarni ishlab chiqishga qaratilgan.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, transmilliy venchur amaliyotida keng qo‘llaniladigan startap-investitsiya shartnomalari (xususan, “SAFE” va “Convertible Note”) an’anaviy qarz yoki oldi-sotdi bitimi qoliplariga sig‘maydigan, o‘zida ham majburiyat, ham ulushli ishtirok elementlarini mujassam etgan mutlaqo o‘ziga xos (“sui generis”) aralash yuridik vositalardir. Biroq ushbu gibrid shartnomalarning milliy yurisdiksiyada to‘laqonli ishlashi uchun zarur bo‘lgan korporativ kafolatlar amaldagi “Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g‘risida”gi Qonunning qat’iy imperativ normalariga va mulkiy ekvivalentlik tamoyillariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri zid kelmoqda.

Ushbu huquqiy to‘siqlarni bartaraf etish hamda qonunchilikni takomillashtirish maqsadida ilg‘or xorijiy davlatlar (AQShning Delaver shtati, Angliya va Singapur) korporativ huquqi tajribasi qiyosiy-huquqiy tahlil qilindi. Natijada, milliy qonunchilik platformasiga quyidagi kompleks moddiy-huquqiy normalarni implementatsiya qilish bo‘yicha aniq ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Birinchidan, venchur investitsiya vositalarini moddiy-huquqiy jihatdan qonuniylashtirish va malakalash. Sud amaliyotida ushbu bitimlarni noto‘g‘ri (oddiy qarz sifatida) malakalashning oldini olish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 41-bobini (“Qarz va kredit”) alohida mustaqil shartnoma turlari bilan to‘ldirish talab etiladi. Unga ko‘ra, qarzni jamiyat ulushiga almashtirishni kafolatlovchi “Ayirboshlanadigan qarz shartnomasi” (732¹-modda) hamda pul mablag‘larini o‘tkazish evaziga kelajakda avtomatik ravishda ulush olishni nazarda tutuvchi “Kelajakdagi ulush uchun sarmoya kiritish to‘g‘risidagi shartnoma” (732²-modda) institutlarini joriy etish taklif qilinadi. Bu o‘zgarish sarmoyani oddiy qarz emas, balki kelajakdagi korporativ huquqlar manbai sifatida kafolatlaydi.

Ikkinchidan, xalqaro amaliyotdagi “avtomatik konvertatsiya” mexanizmini korporativ darajada ta’minlash. Xorijiy davlatlardagi “vakolatli kapital” (authorized capital) instituti tajribasidan kelib chiqib, “Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g‘risida”gi Qonunga o‘zgartirishlar kiritish zarur. Ishtirokchilarning bir ovozdan qabul qilingan dastlabki qarori yoki jamiyat ustavi asosida, jamiyatning ijro etuvchi organiga (yoxud kuzatuv kengashiga) avvaldan belgilangan chegara doirasida ustav fondini oshirish va investitsiya shartnomalari bo‘yicha uchinchi shaxslarni (investorlarni) qabul qilish vakolati berilishi lozim. Ushbu mexanizm orqali har bir sarmoyador kirib kelganda umumiy yig‘ilishni chaqirishdek oylab cho‘ziladigan byurokratik jarayon va sun’iy to‘siqlar bekor qilinadi.

Uchinchidan, ulushlarning mutanosib qisqarishidan himoya qilish (“anti-dilution”) kafolatlarining qonuniy ijrosini yaratish. O‘zbekiston korporativ huquqida

mulkiy ekvivalentlik tamoyili ustuvor bo‘lganligi sababli, investorga tekinga yangi ulush chiqarib berish amaliyoti qonunga ziddir. Bunga qonuniy yechim sifatida, ustav fondining oshirilishi hisobiga dastlabki sarmoyador ulushi qisqarishining oldini olish uchun “Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g‘risida”gi Qonunning 9-moddasiga maxsus norma kiritish taklif etiladi. Unga ko‘ra, “Jamiyat ishtirokchilari o‘rtasida tuzilgan korporativ shartnomada uchinchi shaxslarning jamiyatga qabul qilinishi natijasida yuzaga keladigan ulushlarning mutanosib qisqarishidan himoya qilish kafolatlari va buning natijasida ulushlarni boshqa ishtirokchiga o‘tkazib berish majburiyati nazarda tutilishi mumkin”. Bu orqali himoya mexanizmi muassislarning ixtiyoriy ravishda o‘z ulushini o‘tkazib berish majburiyati orqali amalga oshirilishi ta’minlanadi.

To‘rtinchidan, tugatish imtiyozi (“liquidation preference”) qoidasini kafolatlash. Kompaniya tugatilganda xorijiy investorga kiritgan sarmoyasini boshqa muassislardan oldin imtiyozli tartibda qaytarib olish huquqini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 55-moddasiga dispozitiv norma qo‘shilishi lozim. Ya’ni, kreditorlar bilan hisob-kitob qilinganidan so‘ng qolgan mol-mulk “agar ta’sis hujjatlarida yoxud ishtirokchilar o‘rtasida tuzilgan korporativ shartnomada mol-mulkni taqsimlashning boshqacha tartibi yoki navbati nazarda tutilgan bo‘lmasa”, ulushlarga mutanosib taqsimlanishi qat’iy belgilanishi lozim. Bu o‘zgarish orqali tugatuvchiga taqsimot jarayonida qat’iy mutanosiblikka emas, balki bevosita xususiy korporativ shartnomaga tayanish vakolati beriladi.

Xulosa qilar ekanmiz, fikrimizcha, “SAFE” va “Convertible Note” kabi innovatsion investitsiya vositalarining amaliyotda to‘laqonli ishlashi qat’iy korporativ normalarni erkin shartnomaviy mexanizmlar bilan uyg‘unlashtirishni taqozo etadi. Taklif etilayotgan ushbu qonunchilik o‘zgarishlari an’anaviy yuridik shaxs daxlsizligini buzmagan holda, O‘zbekiston venchur ekotizimini xorijiy investorlar uchun kafolatlangan va investitsiyaviy jozibador muhitga aylantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (Birinchi va Ikkinchi qismlari).
2. O‘zbekiston Respublikasining “Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g‘risida”gi Qonuni, 2026-yil 21-aprel, O‘RQ-1137-son.
3. [Coyle J.F. 2018: 428–430] Coyle John F. and Green Joseph M., “The SAFE, the KISS, and the Note: A Survey of Startup Seed Financing Contracts”, Minnesota Law Review 103.
4. [Tojiboyev A.Z. 2021: 12] Tojiboyev A.Z., “Startaplar faoliyatini fuqarolik-huquqiy tartibga solish” (PhD dissertatsiyasi avtoreferati), Toshkent davlat yuridik universiteti.